Dilbar Obidovna Ismoilova

O‘zbekiston xalq artisti (2003). Zaynab Savriyevaning qizi. Toshkept teatr va rassomlik san’ati institutini tugatgan (1961).

Mahmud Ismoilov

1973 – 1977-yillarda Toshkent teatr va rassomlik san’at instituti da ta’lim olgan. 1977 – 1987- yillarda O‘zbek davlat drama teatri aktyori.

Muqaddas Xoliqova

Muqaddas Holiqova 1960-yil 14-aprelda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1977yili Toshkent Davlat san’at instituti “Teatr va kino” aktyorligi fakultetiga o‘qishga kirib, 1981-yili o‘qishni muvaffaqiyatli tugatgan.

Ginzburg Aleksandr Osipovich

Ginzburg Aleksandr Osipovich (1916 – 23.06.1973) Teatr rejissori. O‘zbekistan xalq artisti (1959). Toshkent yosh tomoshabinlar teatri (1946–51),

Aziza Begmatova

Aziza Begmatova (07.09.1943) Aziza Begmatova 1943-yil 7-sentyabr sanasida Surxandaryo viloyatida tug‘ilgan.

Lola Badalova

Lola Badalova 1928-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan.

Iroda Mirzaxonovna Aliyeva

Iroda Mirzaxonovna Aliyeva (17.12.1929 – 07.06.1989)

O‘zbekiston xalq artisti (1967). “A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san’ati” (O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti) institutining “Dramatik teatr va kino aktyorligi” yo‘nalishini tamomlagan (1951), Hamza (hozirgi O‘zbek Milliy Akademik drama) teatrida ishladi (1951–1972), 1972–1989-yillar «O‘zbekfilm» kinostudiyasida aktrisa. Nasiba («Og‘riqtishlar»), Muqaddas («Chin muhabbat»), Shirin («Bir sevgi afsonasi»), Guzin («Turkiya haqida hikoya»), Kamola (R. Tagorning «Halokat» romani asosida yaratilgan inssenirovka – «Gang daryosining qizi»), Maryam («Jazoir, mening vatanim»), Asal («Sarvqomat dilbarim»), Nazokat («Parvona») rollarida Aliyeva muvaffaqiyat qozondi va lirik rollar ijrochisi sifatida tanildi. Yuksak texnika,

mukammal sahna nutqiga ega bo‘lgan Aliyeva qahramonlarining dunyoqarashi va ichki kechinmasini o‘ziga xos sharqona xususiyat, nazokat bilan ifodalashga erishgan.

Kinoaktyor teatr-studiyasida Nina (A. Kason, «Yetti faryod», 1973), Enaga (A. Korneychuk, «Platon Krechet», 1974) va boshqa rollarni ijro etdi. Kinoda: «Akmal, ajdaho va malika» (1980), «Akmalning yangi sarguzashtlari» (1983) filmlarida yalmog‘iz kampir obrazini yaratdi.

Melis Abzalov

Melis Abzalov (18.11.1938 – 26.10.2016)
O‘zbek aktori, rejissori va ssenariychisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist (1987).